IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

QULOQ OLDI BEZINING GISTOSTRUKTUR TUZILMALARINI POSTNATAL DIFFERENTSIROVKASI

Aliev X.M., Umarova N.A.

Andijon davlat tibbiyot institute

Annotatsiya

Ushbu maqolada gistologik tadqiqot uslublarida oq kalamushlar quloq oldi bezinig gistostruktur tuzilmalarini postnatal differentsirovkasi keltirilgan. Bezinig gistostruktur tuzilmalarini postnatal davrdagi o'sishi va rivojlanishi, tananing umumiy o'sishi bilan bir qatorda, turli yosh davrlarida is'temol qilingan ozuqa turiga ham bog'ligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar

Quloq oldi bezi, postnatal davr, gistostruktur tuzilmalar differentsirovkasi, sekretor alьveolalar, biriktiruvchi to'qima, yuqori prizmatik epiteliy.

Аннотация

В данной статье методами гистологического исследования изучена особенности строения гистоструктур околоушной железы белых крыс в постнатальном периоде жизни. Рост и развитие околоушной железы белых крыс, которое связано не только ростом и развитием всего организма, но и употреблением различной пищи в различные периоды жизни.

Ключевые слова

Околоушная железа, постнатальный период жизни, дифференцировка гистоструктур, секреторные альвеолы, соединительная ткань, высоко призматический эпителий.

Annotation

In this article, by methods of histological research, the features of the structure of the histostructures of the parotid gland of white rats during the postnatal period of life has been studied. The growth and development of the parotid gland of white rats, which is associated not only with the growth and development of the whole organism, but also with the use of various foods at different periods of life.

Key words

Parotid gland, postnatal period of life, differentiation of histostructures, secretory alveoli, connective tissue, highly prismatic epithelium.

A'zo va to'qimalarni turli xil ta'sirlarga, o'zgarishlarga kompensator moslanish jarayonlarini o'rganish uchun ko'plab klinik va eksperimental izlanishlar olib borgan - I.V.Kobelьkova (2010), A.K.Baturin (2010), M.S.Abdullaxo'jaeva (2007), A.Yu.Yuldashev (2007), K.A.Zufarov (2000), L.I.Aruin (1998), A.Beyer (1996), Ye.N.Belyaev (1996), A.Knyajev (1996), N.V.Dudenko (1996) va boshqa olimlar modellashtirilgan tajribalarda hazm aьzolari tuzilishining turli xil ta'sirlarga kompensator-moslanishi bilan kechadigan morfologik o'zgarishlarini chuqur o'rganganlar.

Organizmdagi kompensator - moslashuv o'zgarishlar ovqat tarkibidagi oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral tuzlar va vitaminlar miqdori va sifatiga bog'liqligini xam ko'rsatib o'tganlar. Adabiyotlardagi va internetdagi ma'lumotlar o'rganilganda oqsilli ovqatlanishda me'da, buyrak, jigar, va boshqa a'zolarning morfofunktsional o'zgarishlari o'rganilayotganligi ma'lum, lekin hazm jarayonlarida muhim o'rin tutadigan ovqatning fizik o'zgarishlari: uning mexanik qayta ishlanishi, maydalanishi, aralashtirilishi amalga oshadigan og'iz bo'shlig'i a'zolarida kechayotgan asosiy morfofuktsional o'zgarishlar, siljishlar va struktur moslashishlar yetarlicha o'rganilmaganligi va dolzarbligi ma'lum bo'ladi. Ayniqsa, hazm jarayonlarining boshlang'ich bo'g'inini tashkil etuvchi so'lak bezlarining struktur –funktsional moslashuv mexanizmlarini tadqiqoti muhim o'rin tutadi.

Ishning maqsadi. Postnatal rivojlanish davrida Quloq oldi bezining gistofiziologik differentsirovkasi jarayonlari xususiyatlarini o'rganish.

Material va uslubiyati. Eksperimental tajribalar erkak jinsiga mansub bo'lgan, 20 dona oq kalamushlarda o'tkazildi. Ushbu eksperimental laboratoriya hayvonlarining tana massasi 15 grammdan - 130 grammgachani tashkil etdi. Laboratoriya hayvonlarini, oddiy vivariy sharoitida va ratsionida (qotgan non, ovqat qoldiqlari, ko'katlar, don mahsulotlari, sabzavotlar va suv) aralash oziqlantirildi. Tug'ulgandan so'ng 1 oy davomida ona suti bilan tabiiy oziqlanishi uchun, ona-bola kamlamushlar birgalikda bitta qafasda saqlandi. Keyingi oylarda ajratilib, alohida qafaslarda boqildi.

Laboratoriya hayvonlarining quloq oldi bezi gistologik tekshiruvlar uchun tug'ilgandan so'ng 3-, 30-, 60- va 90- kunlari olindi. Gistologik tekshiruvlar uchun ob'ekt bo'lgan quloq oldi bezi 0,5-1 smli bo'lakchalari 10% formalin bilan fiksatsiya qilinib, 5-6 mkm qalinlikdagi gistologik kesmalar tayyorlandi. So'ng umumgistologik (gematoksilin- eozin) va gistokimyoviy (ShIK va Xeyla reaktsiyalari) usullar yordamida bo'yalib, mikropreparatlar tayyorlandi. Mikropreparatlarni mikroskopik tekshiruvlari o'tkazilib, qiyosiy taxlil qilindi.

Tekshiruvlar natijalari. Oq kalamushning so'lak bezlarining eng yirigi bo'lgan - quloq oldi bezi yassilangan, zichlashgan bo'laklardan tuzilgan, ushbu bo'laklarining chekka konturlari tiniq ko'rinmaydi. Quloq oldi bezi quloqning orqa tomonidan yuqoriga va bo'yinning ventrolateral yuzasidan pastga cho'zilib, bo'tsin limfa tugunlari bilan birga orqa yuz venasi bo'ylab yotadi. Bezning orqa qismi yelka sohasiga yetib boradi va o'mrov suyagining ham tashqi yarmini qoplaydi. Tashqi ko'z yosh bezi esa, quloq oldi bezining oldingi chetiga chambarchars qo'shilib, bezning oldingi nayini boshlanishini yopadi. Uchta asosiy magistral chiqaruv naylarining qo'shilishidan xosil bo'lgan yirik so'lak chiqarish kanali, chaynash mushaklari yuzasi bo'ylab yuz nervining lunj (bukkal) va pastki jag' (mandibulyar) shoxlariga parallel ravishda o'tadi va og'zi bo'shlig'ining dahliz (vestibyuli) qismiga kalamushning katta tishlari qarshisida ochiladi. Oq kalamushlarni tug'ilishi bilanoq, darhol hayotining birinchi sutkalarida quloq oldi bezinig to'qima materiali uni o'rab joylashgan to'qimalarning ranglari farqlanmasligi, bir xil ko'rinishga ega bo'lganligidan juda murakkabdir. Shuning uchun ham oq kalamushning quloq oldi bezi materiali hayotining uchinchi kuni olingan. Kelgusi muddatlarda esa 30- , 60- va 90- sutkalarda olingan materiallardan foydalanildi.

Oq kalamushlarni tug'ilganidan so'ng, hayotining 3-kunida olingan quloq oldi bezining mikroskopiyasida, qon tomirlariga boy biriktiruvchi to'qima qatlamlari bilan ajralib turadigan va chiqaruvchi kanallarga ega bo'lgan bo'laklarchalari aniq ko'rinadi, chunki hayotning prenatal

davridayoq organlarning differentsirovkasi ma'lum darajada sodir bo'ladi. Deyarli bir xil rangdagi har bir bo'lakda sekretor alveolalar va ularning atrofida joylashgan biriktiruvchi to'qima mavjud. Ularning orasidagi chegara turli xil ranglar bilan bo'yalishi tufayli aniq belgilangan. Hayotining bu davrida alveolalar yumaloq - oval shaklga ega, kuchsiz bazofil, biriktiruvchi to'qima esa kuchsiz oksifil rangga ega.

Keyingi muddat bo'lgan 30-kunida esa, nisbatan yirikrok bo'lakchalar mikroskopda aniq va ravshan ko'rinadi, ular qon tomirli biriktiruvchi to'qima qatlamlari bilan bilan ajralib turadi va chiqaruv kanallar silindrsimon epiteliy hujayralari bilan qoplaganligi ko'rinadi. Har bir bo'lakda sekretor alveolalar va ular atrofida joylashgan biriktiruvchi to'qima aniq ko'rinib, organ stromasini hosil qiladi. Turli xil ranglari tufayli ular orasidagi chegara yaxshi aniqlangan. Hayotning 30-kunida alveolalar yumaloq - oval shaklga ega bo'lib, xuddi shu qismi rangpar bazofil shaklga bo'yalgan va biriktiruvchi to'qima esa oksifil .

60-kuni yirik bo'laklarning kattaligi mikroskopda aniq ko'rinib turadi, biriktiruvchi to'qima qatlamlari bilan ajralib turadi, katta qon tomirlariga boy bo'ladi, chiqaruvchi kanallar oldingi o'rganilgan muddatlarga nisbatan kattaroq bo'lib, ularning yumaloq bo'shlig'i silindrsimon epiteliy bilan qoplangan . Bezning bo'laklarida sekretor alveolalar ham oldingi davrlarga nisbatan kattaroq bo'lib, ular atrofida joylashgan biriktiruvchi to'qima, organning stromasini hosil qilib, qon tomirlari ham yirikroq. Hayotning 60-kunida alveolalar, aksariyat hollarda to'q bazofil, biriktiruvchi to'qima esa oksifildir.

90-kuni quloq oldi bezining bo'laklari kattaroq, turli xildagi noto'g'ri shaklga ega, trabekulalarini hosil qilgan biriktiruvchi to'qima bilan ajralib turadi, ularning tarkibida qon tomirlari yirikroq va chiqaruvchi naylari oldingi o'rganish davrlariga nisbatan kattaroq, ularning bo'shlig'i yuqori prizmatik epiteliy bilan qoplangan. Bezning bo'laklarida sekretor alveolalar ham oldingi davrlarga nisbatan anchagina katta bo'lib, ular atrofida joylashgan biriktiruvchi to'qima, organning stromasini hosil qilib, qon tomirlari ham kattaroqdir. Hayotning 90-kunida alveolalar, aksariyat hollarda tasvirlar bazofil, biriktiruvchi to'qima esa oksifilikdir.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tug'ilgandan keyingi davrda ham, oq kalamushlarning quloq oldi bezining o'sishi va rivojlanishi davom etadi, bu nafaqat butun organizmning o'sishi va rivojlanishi bilan, balki turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini ishlatish xamda hayotning turli davrlari bilan ham bog'liq. Hayotning birinchi kunlari va haftalarida kalamushlar ona suti bilan oziqlangan. Bu sekretor bo'linmalar hujayralarining differentsiatsiyasiga va quloq oldi bezi bo'laklarining ko'payishiga olib keldi. Shu bilan bir vaqtda va umuman olganda bo'laklar va butun organga qon ta'minoti ko'payishi kuzatildi. Hayotning 30 va 60-kunlarida bez sekretsiyasi sekretsiyasining bir vaqtning o'zida ko'payishi bilan atsinus sekretor hujayralarining farqlanishi davom yetdi. Faqat, oq kalamushlar hayotining 90-kunida, ular uchun tabiiy oziq-ovqat sharoitida, uning asosini parhezning miqdoriy tarkibi, ozuqaviy qiymati va uning tarkibiy qismlarining muvozanati ta'minlanganda, quloq oldi bezining gistostrukturasi yetuk hayvonlar bezi tuzilishi bilan bir xil bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Автандилов Г.Г. Медитсинская морфометрия. - М.: Медицина, 1990.— С. 384 - 386.

2.Богач П.Г., ГройсманС.Д. О пищевой моторике желудка при пище различного химического состава и консистенции // Вопр. питания. - 1959. - № 2.С. — 56-62 .

3.Гройсман С.Д. Пищевая моторика желудка при пище различной консистенции и химического состава. - Киэв, 1960.С. — 16-17.

4.Махинько В.И., Никитин В.Н. Константы роста и функциональные периоды развития в постнатальной жизни белых крыс // Молекулярные и физиологическиэ механизмы возрастного развития. - Киэв: Наукова думка, 1975. С.- 308-326.

5.Пища и пищевые добавки. Роль БАД в профильактике заболеваний: Пер. с англ. / Под ред. Дж.Ренсли, Дж. Доннелли, Н. Рида. - М.: Мир, 2004.-С.312-313 .

6.Россолько Г.Н., Иванова В.Ф Строение и ситофизиология эндокриноцитов эпителия желудка при нарушении пищевого режима // Морфология. - 1993. - № 11-12.С. - 96-105 .

7.Сыч В.Ф., Дрождина Е.П., Калачева Л.Д., Долотова Е.Д. Особенности морфологии стенки ободочной кишки белых крыс при потреблении диспергированной пищи // Морфологическиэ ведомости. - 2005. - № S.3-4. - 94-96.

8.Tursunov E.O. Bolalar ichki a’zolarining yoshga qarab bo’ladigan o’zgarishlari va anomaliyalari. – Toshkent. - 1993. 45 S.

9.Уголев А.М. Теория адекватного питания и трофология. - Л.: Наука, 1991. С. 195-196 .

10.Успенский В.М. Функциональная морфология слизистой оболочки желудка. - Л.: Наука, 1986. С. 291-293 .

11.Anton M.,TheodorouV. Chronic ingestion of a potential food contaminant induces gastrointestinal inflammation in rats: role of nitric oxde and mast cells // Dig. Dis. Sci. - 2000. - Vol.45, N9. -P. 42-43.

12.Ноздрачев А.Д., Поляков Е.Л. Анатомия крысы. Санкт - Петербург., Издательство “Лань”, 2001. – 464 S.

WORDLY KNOWLEDGE